



## 2019-yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –  
**1222,2 mlrd. so`m**

O`tgan yilning mos davriga  
nisbatan –  
**110,0 %**


Nodavlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar –  
**1160,3 mlrd. so`m**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar  
–  
**61,9 mlrd. so`m**

Joriy yilning yanvar - aprel oylarida Farg'ona viloyatida jami 1222,2 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 135,1 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 292,6 % ga o'sgan bolsa jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan keskin oshgan - 11,1 %.



## FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,3 %i to`g`ri keldi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etgan holda 822,1 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlarining 21,7 % ni tashkil etdi va 265,0 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 102,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Shuni ta`kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi ***yangi bino va inshoatlarni qurish*** bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 58,3 %i yoki 712,7 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.



***Yirik qurilish tashkilotlari*** tomonidan jami qurilish ishlarining 3,5 %i yoki 43,2 mlrd. so`m yangi qurilish ishlari bo`yicha bajarilgan.




***Kichik korxonalar va mikrofirmalar*** tomonidan jami qurilish ishlarining 36,3 %i yoki 443,8 mlrd. so`m yangi qurilish ishlari bo`yicha bajarilgan.

***Norasmiy sektor*** hissasiga jami qurilish ishlarining 18,5 %i yoki 225,7 mlrd. so`m yangi qurilish ishlariga to`g`ri keldi.



## FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (*mld.so'mda*)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamayib, 67,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 28,3% ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlar qurish bo`yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,8 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 67,0 % (3,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektoring ulushi 28,3 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.



## Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 22,2 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 65,2 % (21,4 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,5 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,5 % punktga kamayish kuzatildi.




# FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## HUDUDLAR KESIMIDA QURILISH ISHLARI

Nº	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-aprel (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar-aprel (mlrd, so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
	Viloyat bo'yicha jami:	940,1	1222,2	110,0	100,0
1	Farg'ona shahar	237,3	271,4	96,9	22,2
2	Qo'qon shahar	102,0	102,8	85,4	8,4
3	Quvasoy shahar	76,0	133,4	148,9	10,9
4	Marg'ilon shahar	80,0	100,5	106,4	8,2
5	Oltiariq tumani	33,3	60,9	154,0	5,0
6	Qo'shtepa tumani	32,3	49,2	128,2	4,0
7	Bag'dod tumani	62,1	47,7	65,2	3,9
8	Buvayda tumani	23,6	27,0	96,3	2,2
9	Beshariq tumani	20,4	49,3	205,3	4,0
10	Quva tumani	42,8	61,3	120,6	5,0
11	Uchko'prik tumani	45,0	42,7	80,4	3,5
12	Rishton tumani	14,7	29,2	166,5	2,4
13	So'x tumani	18,6	16,6	75,5	1,4
14	Toshloq tumani	24,5	27,1	93,1	2,2
15	O'zbekiston tumani	15,8	15,5	83,2	1,3
16	Farg'ona tumani	39,1	26,1	56,5	2,1
17	Dang'ara tumani	41,8	68,1	137,6	5,6
18	Furqat tumani	20,9	35,6	142,6	2,9
19	Yozyovon tumani	9,9	57,7	496,6	4,7




Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi  
(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi viloyatning Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining 22,3 % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida 10,9 % ni, Qo'qon shahrida esa 8,4% ni tashkil etdi. Shuningdek jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining 1,4 % i hamda O'zbekiston tumanida 1,3 % ni tashkil etdi.



## Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Hudular bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hissasi viloyatning Yozyovon tumanida 496,6 % kuzatilib jami qurilish ishlari hajmining 4,7 % ni tashkil qildi. Beshariq tumanida 205,3 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 4,0 % ni, Rishton tumanida 166,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 2,4 % ni, Furqat tumanida 142,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 2,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Quvasoy shahrida 148,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 10,9 % I, Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 8,2 % ni tashkil etdi.



# FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi  
"Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov  
Aloqa telefoni: (0373) 241-72-75